ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

YORDAMCHI SO'ZLAR BAZASINI YARATISHDA REPREZENTATIVLIKNING AHAMIYATI

Shamsudinova Ikhbol,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Reprezentativlik har qanday lingvistik baza va korpuslarning ishonchliligini belgilab beradigan eng birinchi talabdir. Chunki til korpuslari ma'lum tildagi matnlarning yig'indisi bo'lgani uchun ushbu matnlarning qaysi mavzu va uslubda bo'lishi juda muhim. Korpus uchun tanlangan matnlar hajm jihatdan imkon qadar katta bo'lishi uning reprezentativlik talablaridan biri hisoblanadi. Ilk yaratilgan korpuslar, asosan, badiiy va publitsistik uslubdagi matnlardan iborat edi. Ammo keyingi avlod korpuslari juda keng qamrovga ega va faqat matnlardan iborat emas. Masalan, o'zbek tilining ta'limiy korpusi turli mavzularga oid 69 ta ma'naviy-ma'rifiy, o'zga til egalarining o'zbek tilini o'rganishiga mo'ljallangan davlat tashkilotlariga murojaat qilish tartibi haqidagi 40 ga yaqin videotasma, og'zaki dialogdan iborat 3284 ta so'zli audio lug'at va 36 ta she'rdan tashkil topgan. Ayni damda bu manbalar yana to'ldirib borilmoqda. Korpus va lingvistik baza yaratuvchisi qanday uslubdagi matnlar va manbalarga tayanganiga qaramay u yaratgan ta'minot to'plami reprezentativlik talablariga javob berishi kerak. Odatda soha mutaxassislari korpusni tilning barcha imkoniyatlarini ko'rsatuvchi oyna, reprezentativlik esa ushbu oynaning shaffofligi deb ta'riflaydilar.

Korpusning reprezentativligini aniqlash usulini A.N.Baranov[1] taklif qiladi. U reprezentativlikda baholash metodologiyasi asosida nisbiy chastotaning qo'llanish kontekstlarni aniqlash usulini ilgari surdi. A.N.Baranov konsepsiyasi har bir nisbiy o'lchov uchun ko'rsatkichlarni qo'lda hisoblash bilan bog'liq yuqori mehnat zichligini talab qilsa ham yondashuv ilmiy samaradorligini isbotladi. Yu.B. Bogayavlenskaya[2] reprezentativlik haqidagi ilmiy qarashlarida *iteratsiya va mutanosiblik zanjir indeksi* usulini tahlilga tortdi. U «Lingvistik korpusning reprezentativligi: ma'lumotlar bazasini tekshirishning verifikatsiya[3] metodi» nomli ishida nazariy mexanika va matematik modellashtirish mutaxassisi Mixail Gennadiyevich Blizorukovning reprezentativlik haqidagi metodini e'tirof etgan. Bu usul *matn bloki* qonuni bo'yicha til birliklarining (so'zlar, harflar, sintaktik funksiyalar, konstruksiyalar…) aniq chastota taqsimotini bir xil katta matnlarda ko'rsatadi. Unga ko'ra reprezentativlik quyidagilarga asoslanadi:

1. Iterativlik *(keyingi o'rinlarda takroriylik, sikllilik deb tushunilsin)* va mutanosiblik tamoyili.

2. Matematika, iqtisodiy statistika ma'lumotlarida ko'p qo'llanuvchi *zanjir indeks*[4]*i*ni hisoblash prinsipi[5].

Zanjir indeksi har bir oldingi bosqichga (iteratsiyaga, ya'ni takroriylikka) nisbatan indikatorning o'zgarishini tavsiflovchi ko'p pog'onali hisobning statistik ko'rsatkichidir. Shunday qilib, taqqoslash uchun asos oldingi iteratsiyada olingan indeks hisoblanadi. Obyektivlikni ta'minlash uchun korpusda indeksatsiya qilinadigan sakkizdan o'ngacha turli format parametrlarini tanlash tavsiya etiladi. Iteratsiyada indeks qiymati hisoblangach har bir parametr uchun o'rtacha reprezentativlik raqami aniqlanadi va parametrlar bo'yicha indekslar yig'indisi ularning soniga bo'linadi. Takrorlash hajmi individual ravishda belgilanadi: u 100 dan 500 gacha (ehtimol ko'proq) indekslangan o'quv birliklari bo'lishi mumkin.

Har bir iteratsiyadan so'ng statistik ko'rsatkichlar olinadi, ***excel***da qayd etiladi va har bir parametrning ishonchlilik indeksi 3.1-rasmdagi formula bo'yicha hisoblanadi.

[1] Баранов А.Н. Проблема репрезентативности корпуса данных (на примере политической метафорики) // Труды Международного семинара «Диалог 2001». – М.: Наука, 2001. – Аксаково, 2001 г.

[2] Богаявленская Ю.В. Репрезентативность лингвистического корпуса: метод верификации достоверности полученных данных // Политическая лингвистика. – 2016, № 4 (58). – С. 163-166.

[3] https://zvonobot.ru/blog/verifikatsiya-chto-eto-prostymi-slovami-printsipy-i-primery/

[4] (Lotincha: index – ko'rsatkich, ro'yxat) – nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar ko'rsatkichi va ro'yxati hisoblanadi. Indeks matematikada ifodalarni bir-biridan farq qilishi uchun ularning yoniga yoziladigan belgilar – son yoki harflardir: Masalan, a, ar x5, xp, u1, u' (bunda: 1, i, 5, n, j- i ndekslar) https://uz.wikipedia.org/wiki/Indeks

[5] Гусаров В., Кузнецова Е. Статистика. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юнити-Дана, 2008. – С. 479.

$$i_1=\frac{P1}{P0}\ ,\ i_2=\frac{P2}{P1}\ ,\ i_3=\frac{P3}{P2}\ ,\ \dots\ i_n=\frac{Pn}{Pn-1}$$

So‘zning takroriyligini aniqlashda zanjir indeksi formulasi

i1 – ikkinchi *P1* iteratsiyasi aniqlangach, parametrning nisbiy chastotasini bo‘lish orqali olingan indeks qiymati;

P – hisoblash uchun tanlangan qiymat parametrining ishonchlilik indeksi uchun tanlangan marker;

P1 – qiymat parametri ikkinchi iteratsiyasidan keyin, birinchi *P0* takrorlanishi aniqlangach o‘rnatiladi;

i2 – parametrning nisbiy chastotasini bo‘lish orqali *P2 uchinch*i iteratsiyasidan keyin o‘rnatilgach, olingan indeks qiymati;

P2 – ikkinchi P1 iteratsiyadan keyin qayd etilgan nisbiy chastota va hokazo…

Ushbu usul ixtisoslashtirilgan ommaviy axborot vositalarida qiyosiy sinovdan o‘tkazildi va dastur yordamida korpuslar yaratildi. Dasturning o‘zi kiritilgan parametrlar bo‘yicha nisbiy chastotani hisoblab chiqadi va tadqiqotchi statistik reprezentativlikni aniqlash jarayonida manbadagi konkordans bog‘lanishlar haqida ham ma’lumotga ega bo‘ladi. Reprezentativlik *in = 1* bo‘lganda ideal ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu qiymat individual ravishda o‘rnatiladi, ammo ishonchlilikka erishish uchun 1 ga moyillik aniq ko‘rsatilishi muhimdir. Taklif etilayotgan usulning afzalliklari – korpusning reprezentativligiga erishish, uning hajmini tartibga solish va foydalanish qulayligiga erishishdan iborat. Dasturda qidiruvga olingan birlikning chastotasini ko‘rsatuvchi diagrammada so‘zning tartib raqami uning chastotasiga teskari proporsional bo‘ladi. Bunda birlamchi chastotaning ko‘payishi bilan keyingi indeksning ahamiyatlilik darajasi, ya’ni matnning ahamiyatlik darajasi ortadi.

Har qanday matn va nutqiy birliklardagi so‘zlarni uch turga bo‘lish mumkin:

1.Yordamchi so‘zlar. Tez-tez ishlatiladigan, ammo qidiruv robotlari tomonidan hisobga olinmaydigan nutqning funksional qismlari.

2. Tasodifiy so‘zlar. Tez-tez uchraydi, ammo maqola mavzusini tasvirlashda u darajada qatnashmaydi, matn mazmuniga deyarli ta’sir o‘tkazmaydi.

3. Muhim so‘zlar. Bu so‘zlar dastlabki ikki tur bilan qiyoslanganda kam uchraydi, ammo qidiruv tizimlari tomonidan veb-sahifa mavzularini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega va tizimda kalit so‘z sifatida olinadi.

So‘zlarning matn reprezentativligini aniqlashdagi bu usul birinchi marta 1949-yilda Jorj Zipf[1] ismli tadqiqotchi olim tomonidan kashf etilgan. U nutq, matn so‘zlaridagi g‘alati bir hodisani anglab qoladi. Olim insonlar nega ayrim so‘zlarni nutqida juda ko‘p qo‘llashi, ayrimlarini deyarli ishlatmasligi haqida o‘ylab qoladi va izlanishlari natijasida so‘zlarni yuqoridagi uch toifaga bo‘ladi. Ko‘rib turganimizdek, tadqiqotchining izlanishlarida yordamchi so‘zlar nutqda eng ko‘p qo‘llanadigan, ammo qidiruv kalitlari sifatida olinmaydigan birlik deb topilgan. Yordamchi so‘zlar bazasini yaratish va chastotasini aniqlash uchun turli xil mavzudagi matnlarni o‘rganib chiqdik va Jorj Zipfning qarashlari asosli degan xulosaga keldik.

Reprezentativ – ma’lumotning qay darajada ishonchliligini aniqlash demakdir. Ishonchsiz ma’lumotlar reprezentativ deb olinmasa-da, ba’zan ishlatiladi. Reprezentativlik haqida so‘z ketganda reprezentativ tanlov va xato, noto‘g‘ri tanlovning ikki xil hodisa ekanligini yodda tutish lozim. Reprezentativ tanlov tanlangan tahliliy axborotni taftish qilishning muhim yechimi hisoblanadi. Lingvistik baza va korpus tuzishda asosiy omilning biri reprezentativlik ekanligini muallif yoki bazadan foydalanuvchi doim yodda tutishi va uning amaliy ahamiyatini yuqoriligini anglashi lozim. Reprezentativlikning asl negizida milliy korpusning bosh maqsadi ochiladi. Chunki korpus jonli tilni ko‘rsatishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Bunda turli uslub va janrdagi matnlar korpus birligi sifatida ishlatiladi. Reprezentativlikni tanlangan matnlarning xilma-xilligi deb atasak ham noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Ya’ni, korpus tilni o‘rganishda qanchalik ahamiyatli bo‘lmasin, faqat bir xildagi matnlar bilan (masalan, badiiy) cheklanib qolmasligi kerak. «U turli mavzudagi (ijtimoiy-siyosiy sohadan to sport mavzusigacha) gazeta, jurnal materiali, shaxsiy yozishmalar, reklama matnlari, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlar, og‘zaki dialog matnlardan tarkib topgan bo‘lishi lozim. Demak, reprezentativlik zaruriy hajm miqdor, janr, uslub, muallifga tegishli matnlar proporsiyasining to‘g‘ri tanlanishidir»[2].

Korpus uchun tanlangan manbaning reprezentativligini so‘zning turli janrga oid tekstlardagi chastotasi, iteratsiyasini (takroriyligi) aniqlash ham

[1] https://marketing.link/ru/zipfs_law/

[2] Хамраева Ш. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро, 2018. – Б. 50.

belgilab berishi mumkin. Ammo matnda so‘zning chastotasi yuqori bo‘lishi reprezentativlik belgisi emas. Manbadagi umumiy so‘z miqdoriga nisbatan qidiruvga olingan lemmaning iteratsiya miqdori qancha past bo‘lsa reprezentativlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Chunki so‘zning takroriyligi sinonimlikning pastligini belgilaydi va bunday matn tilning boyligini belgilamaydi. Tanlangan matndagi lemmaning iteratsiyasini aniqlashda hozirgi paytda eng oson va aniq ishlayotgan dastur AntConc qidiruv tizimidir. Masalan, *[bilan]* ko‘makchisining siyosiy matn tarkibidagi kelish kolokatsiyasi, korpusda paydo bo‘ladigan barcha pozitsiyalarni aniqlash uchun bu so‘zni shtrix-kod formatida taqdim etamiz. Tizimda so‘zning KWIS (chastota qidiruvi) va o‘ng tomondagi so‘z bilan bog‘lanish holati ranglar bilan ajratib ko‘rinadi. AntConc dasturi orqali 2617 ta tokenli siyosiy matndagi *bilan* so‘zining matndagi soni va keyingi so‘zlar bilan bog‘lanish holati 18 ta o‘rinda keldi. AntConc qidiruv tizimining qulayligi shuki, u barcha turdagi grafik harflarni statistikasi, yillar bo‘yicha grafigi, ikkita, uchta, to‘rtta so‘zgacha bog‘lanish holatlarini ko‘rsata oladi. Matndagi so‘zning chastotasi, iteratsiyasini aniqlashda dasturning imkoniyatlari keng. «Ko‘p hollarda lingvistik birliklar bir necha turkum o‘rnida keladi. Bunday hollarda kompyuter so‘zni qanday birlik sifatida qabul qilishini aniqlab beradigan algoritmni bizga kolokatsion qurilma aniqlab beradi. Mazkur qurilmalarda ketma- ketlik tartibi yuqori bo‘lgan hollarda kolokatsiya (collocates – tahlil qilinayotgan so‘zning o‘zi bog‘langan komponent bilan birga kelishi) yuzaga keladi[1]«. Bunday qurilmalarda ham so‘zlar omonimlarga o‘xshab birikuvchilar asosida farqlanishi mumkin. Ammo faqat bu metodning o‘zi barcha polifunksional so‘zlarni farqlab, model tuzish uchun yetarli emas. Chunki ba’zi so‘zlar turkumi kontekstda aniqlanadi. Bunday holatlarda ham bizga AntConc qidiruv tizimi yordam beradi**.** A.Plugyan[2]: «Faqat yozma nutq emas, og‘zaki nutq materiallaridan ham foydalanish til taraqqiyotida sodir bo‘lgan va keyingi kutilayotgan natijalar haqida aniq xulosalar chiqarish bilan birga tilning ayni paytdagi holati haqida bilimga ega bo‘lish imkonini beradi. Bu korpus qamrovini kengaytirib borish bilan ham belgilanadi», - deb yozadi. Demak, korpusning reprezentativligini ta’minlashda og‘zaki so‘zlashuv matni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ba’zi so‘zlarning asl grammatik vazifasi og‘zaki matnlardagina ochiladi.

Korpus atamasi odatda katta hajmdagi matnlar jamlanmasidir. Vaqt o‘tishi bilan korpus strukturasiga ta’sir qilmasdan, yo biror jarayonga asoslanib korpusning hajmi va tarkibi o‘zgartirilishi mumkin. Chunki korpus qanchalik kengaytirilib borilsa, uning reprezentitativligi oshadi, imkoniyatlari kengayadi. Dunyo korpusshunosligida ilk korpuslar deb qaralgan Braun, Lankaster-Oslo-Bergen, rus tilining Upsala korpuslari 1 mln so‘zdan iborat bo‘lganligi uchun bu korpuslar tilning barcha imkoniyatlarini ko‘rsata olmaydi, degan xulosaga kelinadi. Korpusda yordamchi so‘zlarning ifodasi uchun tanlangan manbalarning tanlanishida quyidagilarga e’tibor qaratish muhim:

1. Turli uslubga xos keyingi o‘n yillikda yaratilgan har qanday matnlarning kiritilganligi.

2. Korpus uchun tanlangan matn uchun kodlar (shartli belgilar) belgilanganligi, ya’ni matnning annotatsiyalanganligi.

3. Tanlangan matnlardagi ishtirokchilarning turli toifa, kasb va yoshdagi bir nechta muallifdan iboratligi, tilni bilish darajasidan kelib chiqib nutqiy madaniyati va notiqlik ko‘nikmasining yuqoriligi kabi ijtimoiy parametrlarning hisobga olinganligi.

4. Tanlangan materiallardagi har bir yordamchi so‘z uchun aniq ma’lumot beruvchi grammatik qoidalarning ishlab chiqilganligi.

Masalan, bitta yordamchi so‘z haqida quyidagi parametrlar ilova etiladi:

1) *haqida* – ko‘makchi, sof ko‘makchi;

2) qisqargan shakli: *haqda*;

3) omonimlik – mavjud emas;

4) sinonimlik – *to‘g‘risida, ustida, borasida, xususida kabi* vazifadosh ko‘makchilar bilan sinonimlik hosil qiladi;

5) <-ga> jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgan so‘zlardan keyin keladigan *doir, oid, taalluqli* kabi vazifadosh ko‘makchilar bilan ham valentlikda bo‘ladi: *futbolga oid // futbol haqida*;

6) paronimlik – *Haqda (Allohda ma’nosida)*;

7) antonimlik – mavjud emas;

8) uslubiy xoslanganligi – xoslanmagan;

9) bog‘lanish modellari, konkordans: *ot+bilan+fe’l* va hokazo…

Elektron baza yoki korpus muallifining maqsadi iloji boricha ko‘proq manba, matn to‘plash bo‘lsa-da, har bir tilga oid yig‘ma bazani muayyan bir tilning kichraytirilgan modeli deb atash mumkin. Har qanday tanlangan manba xoh u kichik bo‘lsin, xoh katta hajmga ega bo‘lsin tilning mavjud imkoniyatlarini ko‘rsata olishi uning reprezentativligini belgilaydi. Bu elektron ta’minot yaratuvchisining ishonchli manbalarni tanlay

[1] Боярский К. К. Введение в компютерную лингвистику. Учебное пособие. – СПб: НИУ ИТМО, 2013. – С. 72.

[2] Плунгян В. А Зачем мы делаем национальный корпус русского языка? Отечественные записки. // – Москва, 2005. № 2(23).

olganida ko‘rinadi. Chunki tanlangan leksik birlikning qo‘llanish chastotasi, mazmuni olingan matn ifodalaydigan vaziyat, janr, uslublarga qarab har xil bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *[bilan]* ko‘makchisi ba’zi matnda *[va]* bog‘lovchisi vazifasida ham keladi. Bunday o‘rinlarda *[bilan]* ko‘makchi emas, bog‘lovchi vazifasini bajaradi. Masalan, og‘zaki nutqda *[Munira va Komila kechagi ziyofatda qatnashgani yo‘q]* tipidagi gaplarda *[va]* bog‘lovchisini *[bilan*] ko‘makchisi bilan almashtirish gapning semantik ifodasini ochiqroq ifodalaydi. *[Munira bilan Komila kechagi ziyofatda qatnashgani yo‘q].* O‘zbek tilida bunday grammatik almashinuv og‘zaki matnlarda bor. Rasmiy va ilmiy matnlarda bunday holat uchramaydi. Rasmiy va ilmiy uslubda [*bilan*] biriktiruv bog‘lovchisi vazifasida kelmaydi. Bunday almashinuv faqat narsa-predmet va shaxsni bildiruvchi so‘zlar orasida uchraydi. Harakat, holat va belgi bildiruvchi so‘zlar orasida *[bilan]* ko‘makchisini *[va]* bilan almashtirib bo‘lmaydi. *Chaqaloqlar och va yalang‘och, Yer va suv deb o‘tdi dehqonlar, Yillar osha, asrlar osha, Hukm surdi shunday zamonlar. (E.Rahim)* Ushbu gapda *och va yalang‘och* birikmasi orasida *[bilan]* so‘zini qo‘llash uslubiy g‘alizlik keltiradi. Shuning uchun turli janrdagi matnlardan foydalanish orqali yordamchi so‘zlarning asl grammatik vazifasini namoyon etish mumkin.

Ilk korpuslardan biri bo‘lgan Braun matnlar korpusi AQShning 60-yillardagi yozma nutqini o‘sha davr uchun reprezentativlik qoidalariga mos aks ettirgan. Tanlangan 15 xil janrdagi matnlardan 6 dan 80 gacha boshlang‘ich namunalar qamrab olingan. Unda quyidagi manbalar tanlangan:

1. Sarguzasht, ishqiy romanlar va yumoristik, fantastik badiiy asarlar;
2. Tasavvufga doir, detektiv yo‘nalishdagi asarlar va ilmiy nashrlar;
3. Diniy matbuot va reportaj matnlar;
4. Turli ko‘nikma, sevimli mashg‘ulot, tarjimayi hol va insho mazmunidagi matnlar;
5. Turli xil mazmundagi korxona, ishlab chiqarish hisobotlari va kataloglar va hokazo…

Demak, korpus va elektron bazalar uchun tanlangan materiallarning turli-tuman bo‘lishi uning ishonchli, reprezentativligini belgilaydi va unga til vositalarining semantikasini ifodalashda birlamchi talab sifatida qaraladi. Shuning uchun ham biz ham yordamchi so‘zlarning onlayn bazasi[1]da garchi kichik matnlar bo‘lsa-da, turli uslub va janr manbalariga tayandik.

Rezyume. Maqolada o‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning bazasini tuzish, o‘zbek tili milliy korpusidagi berilishi va reprezentativlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, yordamchi so‘zlar bazasining reprezentativligini aniqlashning ahamiyati, jahon korpuslarida reprezentativligini aniqlash usullari tahlilga tortilgan.

Resume. The article covers the creation of a database of auxiliary words in the Uzbek language, their distribution in the national corpus of the Uzbek language, and issues of representativeness. Also, the importance of determining the representativeness of the base of auxiliary words, the methods of determining the representativeness of the world corpora are analyzed.

Резюме. В статье рассматривается создание базы данных вспомогательных слов узбекского языка, их распространение в национальном корпусе узбекского языка, вопросы репрезентативности. Также анализируется важность определения репрезентативности основы вспомогательных слов, методы определения репрезентативности мировых корпусов.

[1] https://auxwords.uz/